

INGLIZ TILIDAGI BADIY ASARLARNI QIYOSIY TAHLILLASHNING POETIK XUSUSIYATLARI

Gulnar Kunnazarova,

Nukus davlat pedagogika instituti

Ingliz tili va adabiyoti kafedrasida assistent o'qituvchisi, PhD

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18099091>

Annotatsiya. Mazkur maqolada ingliz tilidagi badiiy asarlarni qiyosiy tahlil qilish jarayonida namoyon bo'ladigan poetik xususiyatlar ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tadqiq etiladi. Tadqiqot qiyosiy adabiyotshunoslik va poetika yondashuvlari asosida olib borilib, ingliz adabiyotining turli davrlariga mansub asarlarda metafora, ramz, obrazlar tizimi, ritm va badiiy til kabi poetik vositalarning qo'llanishi tahlil qilinadi. Shuningdek, poetik xususiyatlarning muallif uslubi, adabiy yo'nalish va tarixiy-madaniy kontekst bilan bog'liqligi aniqlanadi. Tadqiqot natijalari poetikaning dinamik va ko'p qatlamli hodisa ekanini ko'rsatib, ingliz adabiyotini chuqurroq anglash va badiiy matnlarni tahlil qilish metodikasini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: qiyosiy tahlil, poetika, badiiy asar, obraz, metafora, ingliz adabiyoti.

Аннотация. В данной статье рассматриваются поэтические особенности сравнительного анализа художественных произведений на английском языке в теоретическом и практическом аспектах. Исследование основано на методах сравнительного литературоведения и поэтики, в рамках которых анализируется использование метафор, символов, системы образов, ритма и художественного языка в произведениях разных периодов английской литературы. Особое внимание уделяется взаимосвязи поэтических средств с авторским стилем, литературным направлением и историко-культурным контекстом. Результаты исследования подтверждают динамический и многослойный характер поэтики и способствуют углублённому пониманию английской литературы и совершенствованию методики анализа художественного текста.

Ключевые слова: сравнительный анализ, поэтика, художественное произведение, образ, метафора, английская литература.

Abstract. This article explores the poetic features of the comparative analysis of English literary works from both theoretical and practical perspectives. The study is based on comparative literary criticism and poetic approaches, focusing on the use of metaphors, symbols, imagery, rhythm, and artistic language in works from different periods of English literature. Particular attention is paid to the relationship between poetic devices, authorial style, literary movements, and historical and cultural context. The findings demonstrate that poetics is a dynamic and multi-layered phenomenon and contribute to a deeper understanding of English literature as well as to the improvement of methods for literary text analysis.

Keywords: comparative analysis, poetics, literary work, imagery, metaphor, English literature.

Kirish. Zamonaviy adabiyotshunoslikda badiiy asarlarni qiyosiy tahlil qilish masalasi tobora muhim ilmiy yo'nalishlardan biri sifatida shakllanib bormoqda. Xususan, ingliz tilidagi badiiy asarlarni poetik jihatdan qiyosiy o'rganish adabiy jarayonning rivojlanish bosqichlarini, estetik tafakkurning o'zgarishini hamda muallif individual uslubining shakllanish mexanizmlarini aniqlash imkonini beradi. Shu sababli, poetik xususiyatlarni qiyosiy tahlil asosida tadqiq etish bugungi filologiya fanining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Ma'lumki, har bir badiiy asar muayyan tarixiy, ijtimoiy va madaniy muhit mahsuli bo'lib, undagi poetik vositalar mazkur omillar ta'sirida shakllanadi. Biroq adabiyotshunoslikda uzoq vaqt davomida poetik tahlil ko'proq alohida asar yoki muallif doirasida olib borilib, qiyosiy yondashuv yetarli darajada qo'llanilmagan. Natijada, poetik vositalarning davrlararo va yo'nalishlararo umumiylik hamda farqlari to'liq yoritilmagan. Shu jihatdan, ingliz adabiyotiga mansub badiiy asarlarni qiyosiy tahlil qilish mavjud ilmiy bo'shliqlarni to'ldirishga xizmat qiladi.

Ingliz adabiyoti o'zining uzoq tarixiy taraqqiyoti davomida romantizm, realizm, modernizm va postmodernizm kabi turli adabiy oqimlarni bosib o'tgan. Har bir oqim o'ziga xos poetik tamoyillari, badiiy ifoda vositalari va estetik mezonlari bilan ajralib turadi. Shu bois, ushbu oqimlarga mansub asarlarni qiyosiy tahlil qilish orqali poetik xususiyatlarning evolyutsiyasi va badiiy tafakkurdagi o'zgarishlar aniqlanishi mumkin. Ayniqsa, metafora, ramz, obrazlar tizimi, ritm va badiiy til kabi poetik komponentlarning turli davrlarda qanday funksional yuklama kasb etgani ilmiy jihatdan muhim masala sanaladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot metodologiyasi qiyosiy adabiyotshunoslik, poetika va badiiy matn tahlili nazariyalariga asoslanadi. Tadqiqot jarayonida badiiy asarlarni o'zaro solishtirish orqali ularning poetik xususiyatlarini aniqlash maqsad qilib olindi. Shu bois, tadqiqotda tavsifiy, qiyosiy, struktur-semantik, stilistik hamda kontekstual tahlil usullaridan kompleks tarzda foydalanildi.

Qiyosiy adabiyotshunoslik metodining nazariy asoslari R. Wellek va A. Warren tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, ular qiyosiy tahlil adabiy hodisalarni milliy chegaralardan tashqarida o'rganish imkonini berishini ta'kidlaydilar. Olimlarning fikricha, badiiy asarni qiyosiy o'rganish orqali poetik unsurlarning umumiyliigi va o'ziga xosligi aniqlanadi. Shu nuqtayi nazardan, mazkur tadqiqotda turli davrlarga mansub ingliz badiiy asarlari tanlanib, ularning poetik qurilishi solishtirildi [8].

Adabiyotlar tahlili. Poetika masalasida M. H. Abrams badiiy asarning estetik qiymati uning shakl va mazmun uyg'unligida namoyon bo'lishini qayd etadi. Abramsga ko'ra, metafora, ramz, ritm va obrazlar tizimi badiiy matnning asosiy poetik komponentlari hisoblanadi. Ushbu nazariy qarashlar asosida tadqiqotda poetik vositalarning funksional yuklamasi alohida tahlil qilindi [1].

Shuningdek, G. Leechning stilistik yondashuvi metodologik asos sifatida qo'llanildi. U badiiy tilni tahlil qilishda leksik tanlov, sintaktik qurilish va semantik qatlamlarning ahamiyatini alohida ta'kidlaydi. Tadqiqot jarayonida aynan shu mezonlar asosida ingliz badiiy asarlaridagi poetik ifodalar tahlil qilindi [6].

Bundan tashqari, T. Eagletonning adabiy nazariyaga oid qarashlari ham metodologik poydevor vazifasini bajardi. Uning fikricha, badiiy matn poetik jihatdan faqat estetik hodisa emas, balki ijtimoiy va madaniy kontekst mahsulidir. Shu sababli,

tadqiqotda poetik vositalar tarixiy va madaniy omillar bilan uzviy bog‘liqlikda ko‘rib chiqildi [4].

Tahlil va natijalar. Tadqiqot natijalari ingliz tilidagi badiiy asarlarda poetik xususiyatlarning davr, adabiy yo‘nalish va muallif uslubiga bog‘liq holda turlicha namoyon bo‘lishini ko‘rsatdi. Xususan, romantizm, realizm va modernizm davrlariga mansub asarlarning qiyosiy tahlili poetik vositalarning evolyutsion rivojini aniqlash imkonini berdi. Masalan, romantizm davrining yorqin namoyandasi Uilyam Vordsvortning “Daffodils” she‘rida tabiat obrazlari orqali insonning ichki kechinmalari poetik metaforalar yordamida ifodalanadi. She‘rda “golden daffodils” obrazi nafaqat tabiat manzarasi, balki inson ruhiy holatining ramzi sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu poetik vosita keyingi davr asarlarida boshqa mazmuniy yuklama bilan qo‘llanadi.

Realizm yo‘nalishidagi Charlz Dikkensning “Great Expectations” romanida esa poetik ifoda ko‘proq hayotiy detallar va tasviriy vositalar orqali amalga oshiriladi. Asarda Pip obrazining shakllanish jarayonida badiiy til sodda, ammo mazmunan chuqur bo‘lib, metaforalar kundalik hayot tasvirlari bilan uyg‘unlashadi. Bu holat romantik asarlardagi hissiy poetik ifodadan keskin farq qiladi.

Zamonaviy ingliz adabiyotiga mansub Virjiniya Vulfning “Mrs Dalloway” romanida esa poetik xususiyatlar ichki monolog va ramziy tasvirlar orqali namoyon bo‘ladi. Asarda vaqt va ong oqimi poetik ritmi belgilovchi asosiy omilga aylanadi. Masalan, Big Ben soatining jaranglashi ramziy vosita sifatida vaqtning o‘tkinchiligi va inson hayotining uzluksizligini ifodalaydi.

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatdiki, metafora romantizmga hissiy-estetik vazifani bajarsa, realizmda tasviriy aniqlikni ta‘minlaydi, modernizmga esa ramziy va falsafiy mazmun kasb etadi. Natijada, poetik vositalar badiiy asarning g‘oyaviy yo‘nalishini belgilovchi muhim omil sifatida namoyon bo‘lishi aniqlandi.

Tadqiqot natijalarini tahlil qilish jarayonida ingliz tilidagi badiiy asarlarning poetik xususiyatlari haqidagi mavjud ilmiy qarashlar bilan muayyan darajada mushtaraklik, ayrim jihatlarda esa nazariy ziddiyatlar mavjudligi aniqlandi. Bu holat poetik tahlil masalasining murakkab va ko‘p qirrali ekanidan dalolat beradi.

Avvalo, R. Wellek poetikani badiiy asarning ichki estetik tizimi sifatida talqin qilib, poetik vositalar muallif niyatidan nisbatan mustaqil holda faoliyat yuritishini ta‘kidlaydi. Biroq mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ingliz badiiy asarlarida poetik vositalar ko‘pincha muallifning individual estetik pozitsiyasi va davr talablari bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi. Demak, poetik vositalarni faqat ichki struktura doirasida tahlil qilish ularning to‘liq semantik va funksional mohiyatini ochib bera olmaydi.

Shu nuqtayi nazardan, T. Eagletonning poetikani ijtimoiy va madaniy kontekst bilan uzviy bog‘liq hodisa sifatida talqin qiluvchi yondashuvi tadqiqot natijalariga yaqinroq ekani kuzatiladi. Eagleton poetik ifodani estetik hodisadan tashqari, muayyan tarixiy ong

va mafkura mahsuli sifatida baholaydi. Tadqiqotda romantik, realistik va modernistik asarlar misolida poetik vositalarning mazmuniy yuklamasi davrga qarab keskin o'zgarishi aynan ushbu fikrni tasdiqlaydi.

Biroq M. H. Abramsning qarashlari bilan qisman polemik munosabat yuzaga keladi. Abrams poetikani asosan shakl va mazmun uyg'unligi orqali baholab, badiiy asarning estetik yaxlitligiga urg'u beradi. Tadqiqot natijalari esa ayrim modernistik asarlarda shakl va mazmun o'rtasida ataylab nomutanosiblik yaratilishini ko'rsatdi. Masalan, Virjiniya Vulf asarlarida poetik ritm va mazmun o'rtasidagi uzilish inson ongining parokandaligini ifodalovchi estetik usul sifatida namoyon bo'ladi. Bu holat poetikaning faqat uyg'unlik emas, balki qarama-qarshilik asosida ham qurilishi mumkinligini ko'rsatadi.

Shuningdek, G. Leech tomonidan ilgari surilgan stilistik yondashuv poetik tahlilda muhim ahamiyat kasb etsa-da, u ba'zan badiiy asarning falsafiy va ramziy qatlamlarini cheklangan darajada yoritadi. Tadqiqotda aniqlanishicha, poetik vositalarning semantik chuqurligi faqat leksik va sintaktik tahlil bilan emas, balki intertekstual va ramziy tahlil orqali ham ochiladi. Shu sababli, stilistik yondashuvni poetik tahlilning yagona mezon sifatida qabul qilish maqsadga muvofiq emas.

Bundan tashqari, rus formalistlari tomonidan ilgari surilgan "badiiylikni begonalashtirish" g'oyasi ham muhokama doirasida qayta ko'rib chiqildi. Ularning fikricha, poetik vositalar o'quvchi idrokini yangilashga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari esa ingliz adabiyotida bu jarayon faqat estetik emas, balki psixologik va madaniy ta'sir vositasi sifatida ham namoyon bo'lishini ko'rsatdi. Demak, poetik begonalashtirish biryozlama emas, ko'p funksiyali hodisa hisoblanadi.

Umuman olganda, polemik tahlil shuni ko'rsatadiki, ingliz tilidagi badiiy asarlarni qiyosiy o'rganishda poetik xususiyatlarni nafaqat estetik tizim, balki ijtimoiy, madaniy va individual muallif tafakkuri bilan bog'liq holda talqin qilish ilmiy jihatdan samaraliroqdir. Mazkur yondashuv poetik tahlilning chegaralarini kengaytirib, adabiy jarayonni yanada chuqurroq anglash imkonini beradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, ingliz tilidagi badiiy asarlarni qiyosiy tahlillashning poetik xususiyatlarini o'rganish adabiy jarayonning ichki qonuniyatlarini chuqurroq anglash imkonini beradi. Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, poetik vositalar badiiy asarning estetik qiymatini belgilovchi asosiy omillardan biri bo'lib, ular muallif uslubi, adabiy yo'nalish va tarixiy-madaniy kontekst bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi. Shuningdek, qiyosiy tahlil natijalari poetik xususiyatlarning davrlararo evolyutsiyasini yaqqol namoyon etdi. Jumladan, romantizm davrida poetik ifoda hissiylik va tabiat obrazlari orqali ustuvorlik kasb etgan bo'lsa, realizmda badiiy tilning aniqligi va hayotiyliigi yetakchi ahamiyatga ega bo'lgan. O'z navbatida, modernistik asarlarda poetika ramziy tasvir, ichki monolog va ong oqimi kabi murakkab shakllar orqali ifodalangan. Bu holat poetikaning statik emas, balki dinamik va rivojlanuvchi hodisa ekanini tasdiqlaydi.

Bundan tashqari, tadqiqot natijalari ingliz adabiyotini o'rganishda qiyosiy-poetik yondashuvning metodologik imkoniyatlarini kengaytiradi. Ushbu yondashuv nafaqat adabiyotshunoslik, balki tarjimashunoslik, stilistika va lingvokulturologiya sohalari uchun ham muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Chunki poetik xususiyatlarni chuqur anglash badiiy matnning mazmuniy va estetik qatlamlarini to'liq talqin etishga xizmat qiladi. Umuman olganda, ingliz tilidagi badiiy asarlarni qiyosiy tahlillashning poetik xususiyatlarini tadqiq etish zamonaviy filologiya fanida dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri bo'lib, kelgusida ushbu masalani kengroq korpus asosida, shuningdek, boshqa milliy adabiyotlar bilan qiyosiy aspektda o'rganish istiqbolli hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abrams, M. H. (2018). A glossary of literary terms. Cengage.
2. Baldick, C. (2015). The Oxford dictionary of literary terms. Oxford university press.
3. Brown, P. T. (2015). The spatiotemporal topography of Virginia Woolf's Mrs. Dalloway: capturing Britain's transition to a relative modernity. *jml: Journal of Modern Literature*, 38(4), 20-38.
4. Eagleton, T. (2011). *Literary theory: An introduction*. John Wiley & Sons.
5. Grivil, R., & Robinson, D. (Eds.). (2015). *The Oxford Handbook of William Wordsworth*. OUP Oxford.
6. Leech, G. N. (2014). *A linguistic guide to English poetry*. Routledge.
7. Shihada, I. M. (2017). *Capitalism in Charles Dickens's Great Expectations: A Critique*. Available at SSRN 2962957.
8. Wellek, R., & Warren, A. (1956). *Theory of Literature*. New York: Harcourt, Brace and World.

Ajlinivaz atindagi
NOKIS MAMLEKETLIK
PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI
NMPPI
1934